Nemis va o'zbek tillarida frazeologizmlarning semantik va lingvokulturologik tahlili. Nemis va o'zbek tillarida frazeologizmlarning umumiy talqini

Ismatullayeva Nigoraxon Nazirbekovna

Namangan Davlat Chet tillari instituti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek va nemis tillaridagi mavjud frazeologizmlarga umumiy tushuncha berishga, frazeologizmlarning lingvokulturologik jihatlarini tahlil qilishda til va madaniyatning o'zaro bog'liqligini tasvirlashga o'zbek va nemis frazeologizmlarining o'zaro bir biriga o'xshash tomonlarini korib chiqish va ulardagi mentallitet va milliy xarakterning ifodalanishi kabi masalalarga chuqurroq yondashishga harakat qilamiz.

Kalit so'zlar: Frazeologizmlar, leksikologiya, leksik imkoniyatlar, inson tafakkuri, lingvokulturologik, fazeologik birlik, frazema, idioma, ibora.

Annotation; In this article, a general concept and German language availe in frazeologizm to Uzbek to grive frazeologizm lingvokulturologik analysis of Uzbek language and culture and to describe the interaction of the bordice and a side of German mutual frazeologizm similar to the one out of them and we try to approach deeper issues in the character of national , as expressed in mentallitet

Keywords: Frazeologizm the leksikologiya vocabulary opportunities of human thought , linvokulturologik, frazeologik unit frazema.

Аннотация: В данной статье мы постараемся дать обшее представление о существующих фразеологизмах узбекского и немецкого языков, описать взаимосвязь языка и культуры при анализе лингвокультурологичуских аспектов фразеологизмов, рассмотреть взаимопонимание узбекского и немецкого фразеологизмов и более глубоко подайти к таким вопросам, как менталлитет и выражение национального характера в них.

Ключевые слова: Фразеологизмы, лексикология, лексические возможности, мышление человека, лингвокультурология, фразеологическая единица, фразеология, идиома, словосочетание.

Har bir tilning boy lingvistik imkoniyatlarini ko'rsatib beruchi vositalardan biri bu frazeologizmlardir. Frazeologizmlar – hozirgi zamon frazeologik sistemasining asosiy birligi bo'lib, tildagi mavjud so'z birikmalarining umumiy hisobidan juda qiyinchilik bilan farqlanadigan ko'p aspektli til hodisasi hisoblanadi.

Frazeologizmlarning paydo bo'lishi inson tafakkuri bilan bog'liq. U tilning leksik imkoniyatlari o'rtasidagi nomutanosibliklarni kamaytirishga xizmat qiladi. Nemis frazeologiyasi boy va uzoq tarixga ega. Bunda sof nemis tilidagi frazeologizmlar qatorida chet tilida qabul qilingan, ya'ni international frazeologizmlar ham mavjud. Frazeologik birliklar kelib chiqishi jihatdan juda qadimiy bo'lsada, ularmi ilmiy va amaliy tadqiq etish nisbatan yosh hisoblanadi. Frazeologiya atamasi yunoncha phrasis- fraza, logos-tushuncha, talimot bo'lib, tilshunoslikning frazeologik birliklarini o'rganuvchi bo'lim deb talqin qilinadi. Til ilmida esa ular frazeologizm, frazeologik birlik, frazema, ibora, idioma, kabi terminlar ostida o'rganil ib kelingan. Frazeolagik birliklarni o'rganish va tadqiq etish tilshunos olimlarni qadimdan qiziqtirib kelgan. XIX asrgacha iboralar lug'atshunoslik tarkibida o'rganilib, bunda ularning faqat ma'nolari va etimologiyasi bayon etilgan. Frazeologiya sohasini o'rganishning

bir qancha qiyin tomonlari bo'lib avvalambor tilshunoslikning bir qator fanlari leksikologiya, stilistika, fonetika, grammatika, mantiq, mamlakatshunoslik va tarix kabi fanlar ma'lumotiga suyangan holda o'rganishni taqozo etadi

Frazeologiya fani boshqa tilshunoslikning sohalariga nisbatan biroz yosh soha hisoblanadi. U asosan XX asrning 50 yillaridan boshlab leksikologiyadan ajralib chiqa boshladi. Ushbu bo'limning mustaqil soha sifatida namoyon bo'lishida bir qancha olimlarning beqiyos hissasi bor lekin tan olib aytishimiz kerak-ki bu borada rus akademiki V. V. Vinagradovnming hizmatlari ko'zga ko'rinarli darajada ulkan. Hech ikkilanmay ushbu olimni "frazeologiya otasi" deb ham atashimiz mumkin. Umuman olganda frazeologizmlar donishmand xalq mahsuli bo'lib tilni bir qadar jozibador qilishga va shu bilan bir qatorda jahlni, piching, kinoyalarni ta'sirli qilib ifodallashga yordam beradi. Frazeologizmlar faqatgina tilning bezagi sifatida qarab bo'lmaydi.

Dunyoda iboralarsiz tilning o'zi yo'q, xususan nemis tili frazeologiyasi ham juda boy va o'zining ko'p asrlik tarixiga ega. Ko'plab tillarda bo'lgani kabi nemis tilshunosligida ham bu sohada izlanishlar olib borgan tilshunos olimlar talaygina. Frazeologiya sohasi rivojiga katta hissa qo'shgan nemis tilshunoslari jumaladan, U. Fiks, X. Burger T. Shippan, D. Stepanova, I.I. Cherneshova, A. Rotkegel va boshqalar. Tilshunoslikda lug'at boyligining boyib borishi uchun turli xil imkoniyatlar mavjud. Tilning lug'at tarkibi asosan so'zlardan iborat. Tilshunoslik bo'limi sifatidagi frazeologiyaning asosi frazeologizmlar tabiatini va ularning kategorial belgilarini o'rganishga, frazeologizmlarning nutqda qo'llanish qonuniyatlarini aniqlashga qaratiladi. Frazeologiyaning eng muhim muammosi frazeologizmlarni nutqda hosil qilinadigan so'z birikmalaridan farqlab, ajratib olish va shu asosda frazeologizmlarning belgilarini aniqlashdir. Idioma frazeologizmlar, frazeologik birikmalar va barqaror jumlalar (maqol va matallar, gapga teng boshqa frazeologizmlar) o'rtasidagi muayyan tafovutlarga qarab ko'plab tadqiqotchilar frazeologiyani 2 xil: tor va keng ma'noda tushunadilar. Uni keng ma'noda tushunilganda, frazeologiya doirasiga maqol va matallar, folklorga xos barqaror jumlalar, ba'zi muloqot shakllari (salomlashish, xayrlashish jumlalari) ham kiritiladi.

Frazeologizmlar faqatgina kundalik hayotimizdagi kundalik nutqimizdagina

qo`llanilib qolmasdan, balki badiiy adabiyotda ham o`z ifodasini topishi, ularning tilda o`ziga xos dolzarbliklar kasb etishini yaqqol namoyon etadi. Ushbu so'zbirikmalarini chuqur tahlil qilishdan avval, so'z birikmasi tushunchasiga alohida to'xtalib o'tsak. So'zlar tilda odatda alohida tarzda emas, balki erkin sintaktik birikma tarzida mavjud bo'ladi. Erkin sintaktik birikmalar ikki yoki undan ortiq so'zlarning grammatik birlashuvidir. Bunday sintaktik so'z birikmalari semantik jihatdan analiz qilinishi mumkin. Barcha so'z birikmalarining umumiy ma'nosi ularning komponentlari ma'nolarining birlashuvidan yuzaga keladi . Bunday so'z birikmalari so'zlashuv jarayonida yaratiladi. Erkin so'z birikmasi qo'llanish jarayonida o'z ma'nosini yo'qotishi va ko'chma ma'no hisobiga turg'un birikmaga aylanishi mumkin. Tilshunoslikda lug'at zahirasining boyib borishi uchun turli xil imkoniyatlar mavjud. Leksik birliklar deganda, nafaqat alohida so'zlarni tushunamiz, balki turg'un so'z birikmalarini (fraza, turg'un ibora, frazeologizmlar) ham tushunamiz. 1) tilshunoslikning tilning frazeologik tarkibini uning hozirgi holatida va tarixiy taraqqiyotida tekshiruvchi bo'limi; 2) muayyan tildagi frazeologizmlar majmui.

“Frazeologiyani kengroq ta`riflash uchun uning nazariy va amaliy jihatlariga e`tibor berish kerak. Frazeologiya – bu til hodisalarining frazeologik jihatdan ifodalanishi uchun bugungi kunda turli xil baxs -munozaralarga sabab bo`lmoqda” Tilshunoslik bo‘limi sifatidagi frazeologiyaning asosiy diqqat e’tibori frazeologizmlar tabiatini va ularning kategorial belgilarini o‘rganishga, shuningdek, frazeologizmlarning nutqda qo‘llanish qonuniyatlarini aniqlashga qaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. “Milliy g’oya O’zbekistonni rivojlantirish strategiyasi”-T.: Ma’naviyat ,2022.

2. Муродқосимов, А., Рахманова, Д., Санакулов, З., & Зарипова, Г. (2020). Немис ва ўзбек тилларида сўз ясаш усуллари (композицион усул мисолида). Academic Research in Educational Sciences, 1(2), 241-248.

3. Dilbar Eshpulatovna Karshiyeva (2020). SPIRITUALITY AND FAMILY STRENGTH OF MILITARY WORKERS. Science and Education, 1 (Special Issue 1), 207-217.

4. Sanakulov, Z. I. (2020). THE MEANING OF WORD FORMATION IN GERMAN AND UZBEK LANGUAGES (IN COMPARATIVE ASPECT). Science and Education, 1(Special Issue).

5. Sanakulov, Z. (2019). Таълим муассасаларида педагогик таълим инновацион кластер истиқболи. In Хорижий тилларни ўқитиш самарадорлигини инновацион педагогик таълим кластери асосида амалга ошириш истиқболлари (pp. 120-124). CSPI.

6. Usmonhodjaeva, M. A., & Shirnazarova, Z. A. (2020). QUESTIONS FROM FOREIGN LANGUAGE TEACHING IN EDUCATIONAL BODIES. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR), 6(6), 448-451.

7. Sanakulov, Z. (2020). Affixation as one of the important objects of grammar. In Current issues of 21st century linguistics and translation studies: theory, practice, innovation. NUU. https://doi.org/10.6084/m9.figshare.12560474.v1

"Science and Education" Scientific Journal November 2020 / Volume 1 Issue 8 www.openscience.u

Rakhmanova, D., Zaripova, G., Rakhmatov, F., & Abdukhalilova, D. (2020). Nemis

va ozbek tilshunosligida frazeologizmlar tasnifi. Science and education, 1(8).

8. Rakhmatov, F. (2020). Tillarda zamon kategoriyasini umumiy-qiyosiy o'rganish. Academic research in educational sciences, (3).

9.Sanakulov, Z. I. (2020). The meaning of word formation in German and Uzbek languages (in comparative aspect). Science and Education, 1(Special Issue).

10. Sanakulov, Z. (2019). Таълим муассасаларида педагогик таълим инновацион кластер истиқболи. In Хорижий тилларни ўқитиш самарадорлигини инновацион педагогик таълим кластери асосида амалга ошириш истиқболлари (pp. 120-124).

CSPI.

Internet saytlari:

1. Google.uz
2. Wikipediya.uz
3. ZiyoNet.uz